



ISLOMIY BANKLARNING O'ZBEKISTONDAGI ILK TAJRIBALARI VA ULARNING AHOЛИ ORASIDAGI QIZIQISHIGA TA'SIRI

Jumazoda Abdulatif

Termiz davlat universiteti

Iqtisodiyot fakulteti Moliya kafedrasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda islomiy bank tizimining shakllanish bosqichlari, ilk tajribalari va ularning aholiga qanday ta'sir qilayotgani tahlil qilinadi. Shuningdek, aholining bu tizimga bo'lgan ishonchi va qiziqishi real misollar asosida o'rjaniladi.

Kalit so'zlar: Islomiy bank, O'zbekiston, moliyaviy xizmat, shariat, qiziqish, ishonch, aholi, moliya bozori, sukuk, qard hasan, mikrokredit, foyda, risk

Kirish

So'nggi yillarda O'zbekiston moliyaviy tizimida islomiy bank xizmatlariga bo'lgan e'tibor ortib bormoqda. Aholining muqobil va shariatga mos moliyaviy xizmatlarga bo'lgan qiziqishi ushbu sohaning rivojlanishiga turki bo'lmoqda. Islomiy banklar kredit berishdan ko'ra sheriklik asosida foyda ko'rishga, foizsiz moliyalashtirishga asoslanganligi sababli, aholining diniy e'tiqodiga mos keladi. Mamlakatda islomiy bank amaliyotlari hali yangi bo'lsa-da, bu yo'nalishda dastlabki tajribalar shakllanmoqda. Mazkur maqolada aynan ana shu ilk qadamlar, mavjud muammolar, va aholining bunga bo'lgan munosabati o'rjaniladi. Islomiy moliya tizimi nafaqat diniy, balki iqtisodiy ehtiyojlar nuqtayi nazaridan ham muhim o'rinn tutadi.

Asosiy qism

Islomiy bank tizimi, o'z mohiyatiga ko'ra, shariat asosida moliyaviy xizmatlar ko'rsatishga yo'naltirilgan. Ushbu tizimda foiz (ribo)ga yo'l qo'yilmaydi, bu esa uni an'anaviy banklardan tubdan farqlantiradi. Shuningdek, bu tizimda tavakkalchilik sheriklik asosida taqsimlanadi, bu esa moliyaviy muomalalarni yanada adolatli qiladi. O'zbekistonda mustaqillik yillaridan keyin bosqichma-bosqich diniy qadriyatlarga asoslangan iqtisodiy modelga bo'lgan ehtiyoj sezildi. Aynan shu ehtiyoj asosida 2020-yillardan boshlab islomiy moliya institutlari faoliyati yo'lga qo'yila boshlandi.

Dastlabki bosqichda islomiy moliya faoliyati asosan xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikda, ya'ni O'zbekiston bank sektorining ayrim tijorat banklari tarkibida alohida islomiy bo'limlar ochish orqali amalga oshirildi.



Jumladan, “Ipak Yo‘li” banki va “Asia Alliance Bank” kabi moliyaviy muassasalar islomiy moliyalashtirish bo‘yicha dastlabki tajribalarni o‘rganishga kirishdi [1].

Aholining ushbu xizmatlarga bo‘lgan qiziqishi asta-sekin ortib bordi. Bu holat bir necha asosiy omillar bilan bog‘liq. Birinchidan, islomiy moliya tizimi aholi orasida diniy qadriyatlarga mosligi bilan ijobiy qarshi olindi. Ayni paytda aholining islomiy talablariga javob beruvchi moliyaviy mahsulotlar yetishmasligi bois, bu soha potentsial jihatdan rivojlanishga juda ochiq bo‘lib qolmoqda.

Ikkinchidan, odatiy bank tizimida foizlar bilan bog‘liq muammolar, ya’ni qarzdorlikka tushib qolish xavfi, aholining muqobil tizimlarga murojaat qilishi uchun asos bo‘ldi. Islomiy bank mahsulotlari esa, ayniqsa, mikro- va kichik biznes uchun sheriklikka asoslangan moliyalashtirish, qard hasan, ijara orasida investitsiya jalg qilish kabi imkoniyatlarni taqdim etmoqda [2].

Uchinchidan, hukumatning ushbu yo‘nalishga bo‘lgan yondashuvi ham bu tizimga nisbatan ishonchni kuchaytirdi. Jumladan, 2021-yilda Markaziy bank tomonidan islomiy moliyalashtirish bo‘yicha konseptual takliflar ishlab chiqildi. Mazkur hujjat orasida “foizsiz bank xizmatlari” bo‘yicha litsenziyalash mexanizmlari, moliyaviy shaffoflik, shariatga muvofiqlik kabi tamoyillar shakllantirildi [3].

Islomiy moliya xizmatlariga bo‘lgan talabni o‘rganish maqsadida 2022-yilda O‘zbekistondagi bir qator oliy ta’lim muassasalari, xususan, Toshkent moliya instituti hamda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tomonidan sotsiologik so‘rovlar o‘tkazildi. So‘rov natijalariga ko‘ra, ishtirokchilarning 67 foizi islomiy moliyaga ijobiy qaraydi, 49 foizi esa bu xizmatlardan foydalanishga tayyorligini bildirgan [4].

Islomiy bank tizimi O‘zbekistonda hali to‘liq shakllanmagan bo‘lsa -da, amaliy jihatdan dastlabki qadmlar tashlangan. Shu o‘rinda “Al Huda” Islomiy moliyaviy tadqiqot markazi tomonidan olib borilgan konsalting faoliyatini alohida ta’kidlash mumkin. Markaz islomiy bank faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun zarur metodikalar, standartlar va xodimlarni tayyorlash dasturlarini ishlab chiqdi [5].

Shariatga mos moliyaviy mahsulotlar orasida mudaraba (ishbilarmon bilan investor o‘rtasidagi sheriklik), musharaka (har ikki tomonning sarmoyasi), ijara (ijara asosida aktivlarni foydalanish) va sukuk (islomiy obligatsiyalar) kabi vositalar mavjud. O‘zbekistonda aynan mudaraba va ijara amaliyotlari orqali kichik biznesni moliyalashtirish bo‘yicha tajribalar sinov tariqasida joriy etilmoqda.





Biroq tizimning to‘liq shakllanishiga to‘siq bo‘layotgan muammolar ham yo‘q emas. Ulardan eng asosiyilar quyidagilar:

1. Huquqiy asoslarning noaniqligi — amaldagi bank qonunchiligi islomiy moliyalashtirish mahsulotlarini to‘liq qamrab olmaydi.
2. Kadrlar yetishmovchiligi — islomiy moliya bo‘yicha maxsus tayyorgarlikka ega mutaxassislar soni kam.
3. Axborot bo‘shtag‘i — aholi orasida bu tizimning imkoniyatlari to‘g‘risida yetarli darajada ma’lumot yo‘q.
4. Iqtisodiy realiyalar — iqtisodiy barqarorlik yetarlicha ta’minlanmagan holatda yangi tizimlar joriy qilishda risklar yuqori bo‘ladi [6].

Ayni paytda, islomiy moliyaning O‘zbekiston moliya tizimidagi ahamiyati tobora ortmoqda. Islomiy hamkorlik tashkiloti, Islom taraqqiyot banki kabi xalqaro moliyaviy tuzilmalar bilan aloqalar kengaymoqda. Bu esa uzoq muddatda tizimni institutsional shakllantirish uchun mustahkam asos yaratadi.

Yakuniy tahlil shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda islomiy bank tizimi istiqbollari mavjud. Biroq, bu yo‘nalishdagi harakatlar huquqiy, iqtisodiy, madaniy va informatsion omillar bilan uyg‘un holda olib borilishi zarur. Bu esa davlat, moliyaviy institutlar va jamoatchilik o‘rtasidagi uzviy hamkorlikni talab qiladi.

Xulosa

O‘zbekistonda islomiy bank tizimi hali yangi bo‘lsa -da, aholining unga bo‘lgan qiziqishi ortib bormoqda. Ilk tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, bu tizim iqtisodiy jihatdan ham, diniy e’tiqod jihatdan ham aholining talablariga mos keladi. Tahlillar asosida aytish mumkinki, yaqin kelajakda islomiy banklar O‘zbekiston moliyaviy tizimida muhim o‘rin egallaydi. Biroq, buning uchun qonunchilikni takomillashtirish, kadrlar salohiyatini oshirish va aholining moliyaviy savodxonligini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Islomiy moliya institutlari faoliyati aholining ishonchini qozonish va iqtisodiy inklyuziyani ta’minalash vositasi sifatida katta imkoniyatlarga ega. Shu bois bu yo‘nalishdagi ishlar tizimli yondashuv asosida davom ettirilishi kerak.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Karimov A. Islomiy bank xizmatlari asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
2. Islomiy moliya asoslari. Al Huda CIBE Training Materials. – T., 2022.
3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. “Islomiy moliyalashtirish bo‘yicha takliflar”, 2021.



4. Toshkent moliya instituti. “Aholining islomiy bank xizmatlariga munosabati” sotsiologik so‘rov natijalari, 2022.
5. Islamic Finance News. Uzbekistan: New Frontiers in Islamic Banking, 2023.
6. Davletov M. Islomiy bank tizimi va huquqiy muammolar. – T.: Huquq nashriyoti, 2023.

